

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**"IQTISODIYOT TARMOQLARIDA
BARQAROR YUQORI O'SISH
SUR'ATLARINI TA'MINLASHNING
ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI"**

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
materiallar to'plami

2024 YIL 28 MART

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT VA SERVIS KAFEDRASI

**Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori
o‘sish sur’atlarini ta’milashning
istiqboli yonalishlari**

mavzusidagi

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(28-mart 2024-yil)

Farg‘ona - 2024

BBK: 65.2/4

UDK: 332.1

Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'milashning istiqboli yonalishlari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti, 2024. 546-b.

Mas'ul muharrir: i.f.d., dotsent A.T.Mirzayev

Tahririyat hay'ati: G.Xonkeldiyeva, A.Mirsodiqov, O.Teshaboyeva,
A.Yulchiyev, Q.Xomidov

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvar kungi 16-son buyrug'i asosida Farg'ona davlat universiteti bo'yicha 2024 yil 5-mart kuni chiqarilgan "Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani o'tkazish to'g'risida" gi 124-sonli buyruqqa muvofiq o'tkazildi.

Anjuman materiallari to'plamidagi maqola va tezislар hududlarni muvozanatlari rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan institutlar va ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodim-izlanuvchilar va magistrantlar hamda talabalar uchun mo'ljallangan.

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va meyoriy hujjatlar sanasining to'g'riliqiga hamda tanqidiy fikrmulohazalarga mualliflarning o'zları ma'suldirlar.

4. Мирзаев А.Т. Оценка использования рекреационных возможностей на рынке туристических услуг // Региональная экономика: теория и практика. – 2019. – Т. 17, № 5. – С. 990 – 1002. <https://doi.org/10.24891/re>. 17.5.990.
5. Мирзаев, А. Т. Эффективные методы управления и государственной поддержки туристско-рекреационной сферы в узбекистане. *Наука сегодня: опыт, традиции, инновации [Текст]: материалы*, 41.
6. Mirzaev A. T. Estimation of the prospects for the use of recreational facilities in the market of tourism services //Наука сегодня: вызовы, перспективы и возможности [Текст]. – 2018. – С. 76.
7. Mirzaev A. T. Evaluation of innovation capacity resource components in effective management of recreational clusters on the basis of econometric analysis // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – 2020. – pp.131-137. <https://doi.org/10.36713/epra4790>.
8. Мирзаев А. Т. Совершенствование системы электронного бронирования как часть цифрования управлеченческой деятельности туристско-рекреационных предприятий // Бюллетень науки и практики. 2020.Т.6.№8. С.165-172. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/57/14>
9. Мирзаев А. Т. Туристик-рекреация корхоналари фаолиятини бошқаришнинг иқтисодий самарадорлиги таҳлили // Иқтисодиёт ва таълим [Текст]. 2019. №6. 194-199 б.
10. Мирзаев А. Т. Туристик хизматлар бозорида рекреацион туризм хизматларига талабнинг ўзгаришлар таҳлили // Иқтисодиёт ва таълим [Текст]. 2019. №1. 214-219 б.
11. Мирзаев А. Т. Туристик-рекреация объектлари кластерларини шакллантириш механизмларини баҳолаш // Иқтисодиёт ва таълим [Текст]. 2018. №6. 207-213 б.
12. Mirzaev A.T. Туристик-рекреация кластерларини бошқаришда инновацион салоҳиятнинг ресурс компонентини баҳолаш услубиёти “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. M№ 4, iyul-avgust, 2020 yil. 390-401 б.

OTMLARDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH TIZIMINI MODELLASHTIRISHNING USLUBIY YONDASHUVLARI VA DASTAKLARI

*G'afurova Shahloxon Karimovna
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, tayanch doktorant*

So‘nggi yillarda oliv ta’lim to‘g‘risidagi tasavvur zamonaviy bozorda tegishli xizmatlarni taqdim etadigan, o‘z iste’molchisiga ega bo‘lgan, ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqaradigan soha sifatida shakllanayotganligi sababli, ta’limdagi sifat kategoriyasi tobora ko‘proq iqtisodiy tus olmoqda. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun ta’lim muassasasi uning sifatini talab darajasida saqlab turishi kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, ta’lim sifati muammosi, shubhasiz, milliy ta’lim siyosatining muhim qismidir, shuning uchun har bir OTMdA ta’lim sifatini boshqarishning umumiyligi muammosi bilan bog‘liq holda o‘ziga xos sifat modeli bo‘lishi kerak. Shu munosabat bilan menejment nazariyasi va amaliyotida bu sohada ishlab chiqilgan turli xil boshqaruv yondashuvlarini tahlil qilib o‘tamiz.

Ilmiy adabiyotlarda sifat menejmentida jarayonli yondashuv o‘zaro bog‘liq boshqaruv funksiyalarining uzluksiz qatori sifatida ko‘rib chiqiladi. Tizimli yondashuvda tashkilot o‘zgaruvchan tashqi muhitda turli maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan o‘zaro bog‘liq elementlar (odamlar, tuzilma, vazifalar, texnologiyalar) to‘plami sifatida qaralsa, vaziyatli yondashuv boshqaruv usullari muayyan vaziyat bilan bog‘liq ravishda belgilanishi kerakligini nazarda tutadi. Sifat ko‘rsatkichlarini matematik va statistik usullardan foydalangan holda miqdoriy baholashga asoslangan yondashuv miqdoriy (matematik) hisoblanadi. Hatti-harakat yondashuvining asosiy maqsadi xodimlarga o‘z imkoniyatlari va ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga yordam berish orqali ish samaradorligini oshirishdir.

Ushbu yondashuvlardan tashqari, ta'lim sifatini tadqiqot etish vazifalari tizimli-tuzilmaviy, maqsadli dasturlash, optimallashtirish orqali ham hal qilinadi. Tizimli-tuzilmaviy yondashuv tarkibiy tahlilning chuqurroq darajasi bilan tavsiflanib, tashkilotda sodir bo'layotgan jarayonlarga ta'sir qiluvchi ko'plab omillarni hisobga olish imkonini beradi. Dasturiy yondashuv rejalashtirish va boshqarishning murakkab vazifalarini hal qilishda strukturalash usuliga asoslangan. U maqsadlar, muddatlar, rahbarlik qilish, boshqarish va ijro etishning integral ko'rinishda birlashtirishni ko'zda tutadi. Butun ta'lim tarkibida, ushbu komponentlarning o'zaro ta'sirini ta'minlash uchun, ular o'rtasida aloqalar o'rnatiladi. Optimallashtirish yondashuvi, birinchi navbatda har bir aniq maqsadga erishish uchun xarajatlarni minimallashtirishga qaratilgan. Xarajatlar bunda keng ma'noda tushuniladi va barcha moddiy, vaqt, inson resurslari va boshqalarni qamrab oladi.

Sanab o'tilgan yondashuvlarning har biri muhim ijobiy tomonlarga ega bo'lgan ilmiy bilim vositalari bo'lib, o'zaro bog'liqligi bilan bir-birini to'ldiradi. Ta'kidlash joizki, yuqorida aytib o'tilgan yondashuvlar umumiy va asosan ishlab chiqarishni boshqarishga qaratilgan. Shuning uchun, ta'lim sohasiga nisbatan, ular yangi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishlari kerak. Ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadigan va rivojlanadigan muhit, shuningdek, ma'lum bir millat madaniyatiga xos bo'lgan qadriyatlarni hisobga olish kerak, deb hisoblaymiz.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, olimlar mavjud nazariy va uslubiy yondashuvlarni ta'lim sohasidagi boshqaruvgaga o'tkazishga harakat qilishgan. So'nggi paytlarda esa, tobora ko'proq olimlar va amaliyotchi menejerlar alohida yondashuvlarning cheklanganligi va ularni birlashtirish imkoniyatlari to'g'risidagi xulosaga kelishgan. Bizning fikrimizcha, yondashuvlarning har qanday sintezi asosida, ular qanday atalmasin, tizimli yondashuv va o'zini o'zi tashkil qilish g'oyasi yotadi [2,3].

Tizimli yondashuvning asosiy vositasi - murakkab ob'ektlarni o'rganish usullari va dastaklari to'plami bo'lgan tizimli tahlildir. Ushbu to'plamga modellashtirish usullari, dekompozisiya, shuningdek evristik, grafik va boshqa ba'zi usullar kiradi. Tizimli tahlilining barcha xilma-xil usullari va dastaklarini dekompozisiya (parchalash) va tasniflash tamoyillari asosida ikkita bir-birini to'ldiruvchi guruhg'a ajratish mumkin.

Dekompozisiya yondashuvi muammoni hal qilish jarayonini bir nechta o'zaro bog'liq mayda jarayonlarga bo'linishidan iborat. Tasniflash yondashuvi har qanday ob'ektlarning umumiyligini bir yoki bir nechta tavsifli xususiyatlarni bo'yicha guruhlarga (sinflarga) bo'lishdan iborat. Tizimli tahlilda tasniflash juda keng ma'noga ega bo'lib, quyidagi vazifalarni bajaradi: o'xhash ob'ektlar to'plamini tavsiflovchi tushunchalar tizimi, ob'ektlar sinflari o'rtasida aloqalarni o'rnatish vositasi, keyingi prognozlash va xulosalarni umumlashtirish uchun asos.

Har qanday tizimning maqsadini ikkita tarkibiy qismga ajratish mumkin: tizimning yaxlitligi, tartibliligi va barqarorligini saqlash bo'lgan bosh maqsad va ma'lum bir parametr bo'yicha yuqori darajadagi tizimni saqlab qolishga yo'naltirilgan funksional maqsad. O'zini o'zi tashkil qiluvchi tizim barqarorlik va o'zgaruvchanlik, yaxlit va uning qismlari o'rtasidagi qaramaqarshiliklardan iborat. Har qanday o'zgarish yangi tuzilmani shakllantirishni talab etadi. Ushbu tuzilmalar mavjud resurslar doirasini kengaytirish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish va tizimning potensial ish faoliyatini oshirish uchun mo'ljallangan. Shubhasiz, bu yo'nalish tizimning eski tuzilmani saqlab qolish istagiga ziddir. Shunday qilib, o'zini o'zi tashkil etuvchi tizimlarning eng muhim xususiyati bu ikki tendensiyaning qaramaqarshilik o'zaro ta'siri: barqarorlik tendensiyalari va ushbu barqarorlikni cheklashni talab qiladigan yangi yanada samarali shakllarni izlash tendensiyalari.

Ta'lim muassasasining funksional maqsadi malakali mutaxassislarni tayyorlashdir. Boshqa tomondan, rivojlanish barqarorligini ko'zlovchi bosh maqsad ham mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq. Shunday qilib, ushbu maqsadlarning uyg'unlikda amalga oshirishdan tabiiy ravishda ta'lim sifatini ta'minlash bog'liq. Demak, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifati tizimning bosh va funksional maqsadlarini bog'lovchi zanjirdir.

Shunday qilib, sifat menejmenti funksional ketma-ketligi quyidagi takrorlanadigan va doimiy amalga oshiriladigan bosqichlardan iborat:

ta'lrim sifati bo'yicha g'oyalarni, istiqboldagi ko'rishlarni OTM missiyasi va strategiyalarida ifodalash;

sifat menejmenti bo'yicha faoliyatni rejalashtirish;

rejalarga egalikni tashkil qilish va rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshirish;

jarayonlarning borishi va ularning natijalarini kuzatish;

olingan natijalarini tahlil qilish va tuzatish kiritish.

Ta'lrim sifatini boshqarish ta'lrim sifatini baholash muammosi bilan bog'liq bo'lib, u muvofiq ravishda nazariy va uslubiy strategiyani va yondashuvni ishlab chiqishni talab qiladi. Bu yondashuv matematika va statistika vositalarini qo'llagan holda boshqarish jarayonlarini modellashtirish usuliga asoslanadi. Bugungi kunda raqamlashtirish texnologiyalarining rivojlanishi bilan bu yondashuvning imkonyatlari yanada kengaydi. Biroq, barcha xodimlar tomonidan zamonaviy statistik usullarni, raqamlashtirish texnologiyalarini qo'llash ko'nikmasini egallashi juda murakkab va jarayon ishtirokchilarining chuqur matematik-kibernetik tayyorgarligisiz amalda qo'llab bo'lmaydi. Shuning uchun barcha uchun qulay va oddiy bo'lgan jarayonlarni, ya'ni ta'lrim xizmatlari tizimining asosiy tarkibiy qismlarini (ta'lrim xizmatlarining sifati, o'qitish usullarining samaradorligi va ta'lrim xizmatlarini amalga oshirish faoliyati)ni aniqlashga imkon beradigan tahlil qilish usullarini tanlash katta ahamiyatga ega [4].

Ta'lrim sifatini boshqarish ta'lrim sifatini baholash muammosi bilan bog'liq bo'lib, u muvofiq ravishda nazariy va uslubiy strategiyani va yondashuvni ishlab chiqishni talab qiladi. Bu yondashuv matematika va statistika vositalarini qo'llagan holda boshqarish jarayonlarini modellashtirish usuliga asoslanadi. Bugungi kunda raqamlashtirish texnologiyalarining rivojlanishi bilan bu yondashuvning imkonyatlari yanada kengaydi. Biroq, barcha xodimlar tomonidan zamonaviy statistik usullarni, raqamlashtirish texnologiyalarini qo'llash ko'nikmasini egallashi juda murakkab va jarayon ishtirokchilarining chuqur matematik-kibernetik tayyorgarligisiz amalda qo'llab bo'lmaydi. Shuning uchun barcha uchun qulay va oddiy bo'lgan jarayonlarni, ya'ni ta'lrim xizmatlari tizimining asosiy tarkibiy qismlarini (ta'lrim xizmatlarining sifati, o'qitish usullarining samaradorligi va ta'lrim xizmatlarini amalga oshirish faoliyati)ni aniqlashga imkon beradigan tahlil qilish usullarini tanlash katta ahamiyatga ega.

Ta'lrim sifati omillarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

- o'lchanadigan, mutlaq ko'rsatkichda aniqlanishi mumkin (ta'lrim sifati komponentlari) bo'lgan;

- miqdoriy ifodaga ega bo'lмаган, masalan, motivasiya;

- baholanadigan, ekspert baholash orqali ta'lrim texnologiyalari mazmunining sifat xususiyatlarini aniqlaydigan.

Omillarning integrasiyasi miqdoriy omillarni ularning sifat analoglariga (sifatning intensivlik qiymatlariga mos keladigan) o'girish, har qanday qiymatlarni bitta asosga - sifatga transformasiyalash mexanizmini yaratish bilan tavsiflanadi. Ko'pincha ta'lrim sifatini boshqarishda statistik nazorat va jarayonlarning kirish va chiqish xususiyatlarini tahlil qilish usullari qo'llaniladi. Ta'lrim sifati omillarini baholashda sifat statistikasi katta ahamiyatga ega. Uning afzallik jihatlari quyidagilda namoyon bo'ladi:

- ta'limi tizim, jarayon va natija sifatida ko'rib chiqadi;

- maqsadli tizimlarni o'rganishning eng muhim xususiyatini, ya'ni miqdoriy qiymatlardan sifat analoglariga o'tishni, hisobga oladi;

- tushunchalar va usullar tizimini joriy qilish orqali turli omillar uchun yagona sifat asosini yaratadi;

- shaxsiy kompyuterda ta'lrim sifatini baholash va tadqiqot jarayonini modellashtirishning ko'p qirrali tavsifi uchun boshlang'ich nuqtalarni taqdim etadi.

Sifat dastaklari va usullariga oid bir qancha tadqiqotlar olib borilgan va sifat samaradorligini baholash usullari majmualari ishlab chiqilgan bo'lsada, TQM (yalpi sifat boshqaruvi) tizimini O'zbekiston OTMlariда joriy qilish nuqtai nazaridan ushbu uslublarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish talab etiladi. Sifat dastaklari va usullari o'quv muassasasidagi muammolarni aniqlash va ijodiy hal qilish vositasidir. TQMning kuchli jihatlaridan biri bu uning asosiy

tushunchalarini amalga oshirish uchun bir qator foydali vositalarni birlashtirishdir. Biroq, metodlarning samarasi faqat ulardan muntazam foydalanish natijasida bo‘lishi mumkin. Tahlil uchun maqbul, oddiy vositalarni topish va xodimlarni ulardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish muhimdir. Amaliyotda bunday vositalar muassasaning qaror qabul qilish madaniyatining bir qismiga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
2. Shves, V.E. «Menedjment kachestva» v sisteme sovremennogo menedjmenta // Standarti kachestvo. - 1997. - № 6. - S. 48 - 50.
3. Luthans, F. Meeting the New Paradigm Challenges Through Quality Management//Quarterly. -1993. -Spring. -27.
4. Seymour, D.T. Higher Performing Colleges. - Maryville, MO : Prescott Publishing, 1995.-Vol. 1. https://openlibrary.org/works/OL2813777W/High_Performing_Colleges
5. Nizamov, A. B., & Gafurova, S. K. (2020). Assessment of factors influencing the quality of education in higher educational institutions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(6), 1784-1796.
6. Gafurova Shahloxon Karimovna the process of quality management in educational institutions. Actual problems of modern science, education and training. March, 2022 - 3. ISSN 2181-9750

MAMILAKATIMIZDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA XIZMATLAR SOHASINING O‘RNI VA ROLI

*Zaylobitdinova Husnida Xaliljon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti, o‘qituvchi*

O‘zbekistonda rivojlanishning zamonaviy bosqichlari jahon bozorlarida raqobatbardoshlikni oshirish, shuningdek barqaror iqtisodiy o‘sish darajasini ta’minalash strategiyalarini amalga oshirish bilan ta’riflanadi. O‘zbekistonning jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlari qatoriga yorqin ijtimoiy xususiyatlarga ega bo‘lgan, aholi faravonligini va hayot turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish sohasini ko‘rsatishimiz mumkin.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «Tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish: uning tarkibida sanoat, xizmat ko‘rsatish ulushini kengaytirish hisobiga milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish» zarurligi ta’kidlangan [1]. Xizmatlar sohasi hozirgi kunda jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechirib, bunda biznesni yuritish bo‘yicha yangi, ya’ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, turizm, konsalting va rekruting singari usullar qo’llanilmoqda. Xizmat ko‘rsatish jarayonlariga yanada mukammal texnologiyalar va iste’molchilar talablariga javob beruvchi puxta ishlab chiqilgan servis tizimlarining joriy etilishi korxonalarining yangi tarmoq va mintaqqa xizmatlar bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Ular ikkita umumiy nazariy asoslanishga ega [5]. Birinchidan, barcha kontseptsiyalar xizmatlar xususiyatini tovar sifatida namoyon bo‘lishini uzoqlashtiradi. Turli darajada xizmatlarni sezilmas xizmat ko‘rsatish manbasidan ajralmas xususiyatini, nomuqobil va doimiy bo‘limgan sifatliliginu ta’kidalashadi. Ikkinchidan, o‘rganilgan xizmatlar marketingi yondashuvlari tashkilotda xizmatlar marketingini boshqarishda qo’shimcha strategiyalar yoki nazoratdagi omillar zaruriyatligini ta’kidlashadi va yo‘naltirishadi.

O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalash va bozor islohotlarini chuqurlashtirish jihatidan xizmatlar sohasi iqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylanmoqda. Xizmatlarni rivojlantirishni faollashtirishga tadbirkorlik tashabbuslarini yanada kengaytirish,

| | |
|---|-----|
| TEMIROV SH.P. | |
| Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari rivojlanishida innovatsion boshqarvdagi muammolar va ularning yechimlari..... | 275 |
| ABDULLOYEV A.J., OSTONOV M.R. | |
| Oilaviy tadbirkorlik hududlarni rivojlantirish omil sifatida..... | 278 |
| NAVRUZ-ZODA L.B., RAXMATOVA F.YU. | |
| Hududlarda zamonaviy tadbirkorlik va tarmoqli marketingni rivojlantirish..... | 281 |
| RAJABOVA M.A., HASANOV F. | |
| Qishloq xo'jaligida gender tengligi, ayollarni agrobiznesga jalb qilishning alohida xususiyatlari..... | 284 |
| NAVRUZ-ZODA L.B., RO`ZIMURODOVA Z. | |
| Buxoro viloyatida tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish asosida xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish imkoniyatlari..... | 287 |
| NAVRUZ-ZODA L.B., TO'RAYERVA H.T. | |
| Inson kapitati: zamonaviy iqtisodiyotda uning tushunchasi, o'rni va toplash muammolari..... | 291 |
| NISHONBOYEV D.E., DJURABOYEVA D.M. | |
| O'zbekiston respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi..... | 294 |
| XAZRATQULOV S.S. | |
| Tadbirkorlikda innovatsion faollikni samarali boshqarishda xorij tajribasidan unumli foydalanish..... | 298 |
| XAZRATQULOV S.S. | |
| Kichik biznes sub'ektlari faoliyatini amalga oshirishni tashkil etish yo'naliishlari..... | 300 |

5-SHO'BA. HUDUDLARNING MUHANDISLIK-KOMMUNIKATSIYA VA IJTIMOIY INFRAZILMA TIZIMINI HAMDA XIZMAT KO'RSATISH VA SERVIS SOHALARINI RIVOJLANTIRISH

| | |
|--|-----|
| УБАЙДУЛЛАЕВ М.Б., КЕНЖЕЕВА М.А., АСКАРАЛИЕВ Ш.А., ИСМАИЛОВА А.Т. | |
| К вопросам некоторых аспектов проблем безработицы в Кыргызстан: реалии и перспективы..... | 302 |
| MIRZAYEV A.T., KARIMOVA D.SH. | |
| Turistik destinatsiyalar shakllanishining nazariy-uslubiy jihatlari..... | 308 |
| KALANDAROV F. | |
| Crowdfunding in tourism: systematic literature review..... | 313 |
| ASRAQULOV A.S. | |
| Turistik korxonalar faoliyat ko'rsatkichlari mavsumiy tebranishlarini tekislash..... | 319 |
| MIRZAYEV A.T., KARIMOVA S.U. | |
| Turistik destinatsiyalar faoliyatini rivojlanishiga konsetual yondashuvlar..... | 323 |
| G'AFUROVA SH.K. | |
| Otmarda ta'lif sifatini boshqarish tizimini modellashtirishning uslubiy yondashuvlari va dastaklari..... | 327 |
| ZAYLOBITDINOVA H.X. | |
| Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashda xizmatlar sohasining o'rni va roli..... | 330 |
| IBRAYIMOVA D.A. | |

| | |
|--|-----|
| Oziq-ovqat mahsulotlari marketing strategiyasining mintaqaviy xususiyatlari..... | 334 |
| MATNIYOZOV M. | |
| Factors influencing destination image of Khiva..... | 336 |
| OLIMOVA N.X., TO'YCHIYEVA SH.A. | |
| Sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi ishtirokini davlat tomonidan nazorat qilish va qo'llab-quvatlash..... | 339 |
| OLLANAZAROV B.D., JUMANIYAZOVA G.X., ASHIROVA YU.YU. | |
| Turistik xizmatlar ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda turistik klasterlarning investitsion faoliyatidan samarali foydalanish yo'llari..... | 343 |
| RO'ZMETOV B.SH. | |
| Madaniy xizmatlar mohiyati va uning turizm sohasini rivojlantirishdagi o'rni..... | 347 |
| RAXIMOVA S.M., BOZOROV SH., YO'LDA SHEVA S. | |
| Innovatsion rivojlanishda tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishning ilg'or tajribalari asosida tibbiy xizmatlarni tashkil qilish..... | 351 |
| SATTAROVA M., JABBOROVA M. | |
| Mintaqada investitsion muhitni shakllantirishda turizmni ahamiyati..... | 356 |
| KARIMOV SH.X. | |
| Xizmatlar bozori faoliyatini rivojlantirishda xaridorlar ehtiyojini qondirishning marketing strategiyasidan samarali foydalanish yo'llari..... | 358 |
| MADRAIMOV SH. | |
| Innovatsion rivojlanish sharoitida bank xizmatlari va ularni tijorat banklarida rivojlantirishdagi ahamiyati..... | 364 |
| MADRAIMOV SH. | |
| Moliya bozorida bank xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishning nazariy asoslari..... | 367 |
| TURSUNOV O.B. | |
| Transport logistika xizmatlari kompaniyalarining faoliyat yo'nalishlari..... | 369 |
| TURSUNOV O.B. | |
| Development of transport services during the pandemic and legal institutional frameworks..... | 373 |
| TURSUNOV O.B. | |
| Representative indicators for the provision of transport services..... | 377 |
| НУРМАТОВ Д.Н. | |
| Теоретические основы экономики безопасности труда..... | 381 |
| TESHABAYEVA O.N., YUSUPJONOV N.U. | |
| Turistik korxonalarini boshqarish bo'yicha xorijiiy tajribalardan foydalanish..... | 384 |
| UMAROVA I.N. | |
| Tabiiy monopoliyalar sohalarida raqobatni shakllantirish xususiyatlari..... | 387 |
| TESHABAYEVA O.N., O'RINBOYEVA Z.A. | |
| Iqtisodiy fanlarni o'qitish va sifatli kadrlar tayyorlashning tajribalari..... | 393 |
| XAMRAEV N.R. | |
| O'zbekistonda oziq-ovqat sanoatini barqaror rivojlantirish asosida hududlar rivojlanishini ta'minlash masalalari..... | 395 |
| JAMOLIDDINOVA M.D. | |
| Professional competence of foreign language teacher in the system of continuous education..... | 399 |
| KHUDAIBERDIYEVA A.K., ISMATULLAEVA R. | |
| Measures for the development of cultural tourism in Uzbekistan..... | 403 |